

**"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston
Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish
haqida"gi qonun prezident tomonidan imzolandi**

(O'RQ-799-son, 02.11.2022-y.)

Qonunga ko'ra, geografik ob'ektlarga jahon tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning ismlarini berishga ruxsat beriladi.

Shu bilan birga, aholi punktlarining tarkibiy qismlariga O'zbekiston yoki dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomlarini berish prezident qarori asosida va, qoida tariqasida, nomlari bo'lmagan ob'ektlarga nisbatan vafotidan keyin amalga oshiriladi.

Geografik ob'ektlarga nom berish va ularning nomini o'zgartirish bo'yicha takliflarni tayyorlash jarayonida mahalliy aholining fikri hisobga olinadi.

Takliflarni qabul qilingandan keyin muhokama qilish uchun tegishli organlar ularni 5 ish kuni ichida o'zlarining rasmiy nashrlarida, rasmiy veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladilar.

Shuningdek, takliflarni muhokama qilish ular e'lon qilingan kundan boshlab 15 kundan kam bo'lmasligi kerak.